

JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH JINOYATLARNING TERGOVINI TAKOMILLASHTIRISH

Elov Sardor Ikromovich

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Tergov faoliyati”
mutaxassisligi bo‘yicha magistratura tinglovchisi.

Phone: +99833 337-77-70

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11318470>

Annotatsiya. Maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergovini takomillashtirish masalalarining nazariy va amaliy misollar orqali tahlil qilingan. Tahlillar asosida ushbu jinoyatni yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, legallashtirish.

LEGALIZING THE PROCEEDS OF CRIMINAL ACTIVITY IMPROVING CRIMINAL INVESTIGATION

Abstract. The article analyzes the problems of improving the investigation of crimes of money laundering through theoretical and practical examples. Based on the analysis, a proposal for further improvement of this crime was developed.

Key words: Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, mitigating circumstances, law enforcement agencies, investigative activities, legalization.

ЛЕГАЛИЗАЦИЯ ДОХОДОВ ОТ ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНОГО РАССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются проблемы совершенствования расследования преступлений, связанных с отмыванием денег, на теоретических и практических примерах. На основе анализа было разработано предложение по дальнейшему совершенствованию данного преступления.

Ключевые слова: Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, смягчающие обстоятельства, правоохранительные органы, следственные действия, легализация.

KIRISH

Dunyoda iqtisodiy munosabatlar jahonshumullashuvi sharoitida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasida kriminallashtirish darajasi ortishi, xususan: “kontrabanda”, “soliq va boj to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash”, “kapitalning xorijga oqimi”, “yashirin iqtisodiyot” va “korrupsiya” holatlari ko‘payib borishi kuzatilmoqda. Izlanishlar natijalari, dunyo bo‘yicha har yili 20-25 milliard dollar kapitalning ofshorlarga chiqib ketishi, mamlakatlar soliq va bojxona qonunchiligidagi nomutanosiblik hisobiga yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizi miqdorida yo‘qotilishi va barcha darajadagi mansabdorlarga berilgan pora miqdori bitimlarning 10 foizgachasini tashkil etishini tasdiqlagan. Kriminologlarning ta’kidlashicha, bu esa jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun imkoniyatlar mavjudligi bilan o‘ziga jalb etmoqda. Bu o‘z navbatida, ijtimoiy rivojlanishning salbiy omili bo‘lib, uning keng ko‘lamda yoyilishi davlatning moliyaviy tizimi va iqtisodiy xavfsizligiga haqiqiy tahdididir. Shu bois, ushbu

sohadagi jinoyatlarga qarshi jinoiy-huquqiy vositalar orqali kurashish va tergovni takomillashtirish ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Jahonda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, jinoyatlarning tergovini takomillashtirish borasida olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarning tergovini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tahliliy ishlarni olib borish hozirgi kunda ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kundagi uyushgan jinoyatlar tomonidan odam o'ldirish, talonchilik, bosqinchilik, o'g'rilik, tovlamachilik kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda, katta daromad olishga qaratilgan terrorizm, tabiiy boyliklarni sotishdan keladigan daromadlarni o'zlashtirish, davlat mulklarini noqonuniy xususiylashtirish, savdo, soliq yoki valyuta sohasidagi jinoyatlarni sodir etmoqda. Natijada, ularda jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni turli usullarda legallashtirishga ular zarurat sezmoqda.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash, soliq sohasidagi qonunbuzarliklarni aniqlash, barham berish, soliq va majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish, naqd pul va xorijiy valyuta mablag'larining noqonuniy aylanishiga, jinoiy daromadlarning asosiy manbasi bo'lgan "xufiyona" biznesning shakllanishiga qarshi kurashish bo'yicha har tomonlama chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Asosiy qism. Uyushgan jinoyatchilik va unga qarshi kurash hozirgi paytda jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, umumbashariylashuv jarayoni jadallashgan XXI asrda uyushgan jinoyatchilikning transmilliy fe'l-atvor kasb etishi bu muammoga yetarli e'tibor berilishini taqozo etmoqda. Jahon ahlini xavotirga solayotgan va uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishiga zamin yaratayotgan transmilliy fe'l-atvordagi jinoyatlardan biri bu jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatidir[1].

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati iqtisodiyot sohasidagi eng muhim ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi, davlatning iqtisodiy salohiyatiga putur yetkazadi, o'tkazilayotgan islohotlar va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Uning xavfliligi, ushbu jinoyat asosan uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilishi bilan ajralib turadi[2].

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni noqonuniy yo'llar orqali topilgan mulkni boshqa shaxsga o'tkazish, o'zgartirish yoki almashtirish yo'li bilan kelib chiqishiga qonuniy shakl berish tushuniladi. Shuningdek, uning asl mohiyatini, jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarning joylashgan joyini va manbasini yashirish yoki yashirishga harakat qilish tushuniladi[3].

Shuningdek, ushbu tushunchalar O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar alohida keltirilib o'tgan. Unga ko'ra, *jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar* — jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk, shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to'liq yoki qisman boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoxud o'zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulkka qo'shilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk; jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar — jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk,

shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to'liq yoki qisman boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoxud o'zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulkka qo'shilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulkdan iborat[4].

Demak, jinoiy yo'l bilan topilgan daromad jamiyatning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi hamda sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir davlat o'zining milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, noqonuniy moliyaviy operatsiyalarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar hamda jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni davlat egaligiga olib qo'yish mexanizmlarini ishlab chiqish choralarini ko'radi[5].

F.M. Fazilovning fikricha, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoyat qonunchiligida jinoyat deb topilgan ijtimoiy xavfli qilmishdir[6].

Mazkur tushunchadan kelib chiqqan holda jinoiy faoliyatdan olingan noqonuniy "iflos" pullar yoki daromad deganda, qonunga xilof bitim va qonunga xilof jinoiy xususiyatga ega bo'lgan harakat yoki harakatsizlik, ya'ni qonunga xilof faoliyatdan olingan daromadlar tushuniladi.

Pul yuvishning (legallashtirishning) asosiy maqsadi esa pulni "tozalash" orqali jinoyatning kelib chiqish manbasini yashirish, mumkin bo'lgan vaziyatga erishish va huquqni muhofaza qilish organlari yoki soliq organlarining e'tiborini jalb qilmasligi va ularni go'yoki qonuniy yo'l bilan olinganligiga shubha tug'dirmasligi kerak. "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish" tushunchasini chuqur anglash uchun, bizning nazarimizda, ushbu muammo bilan bog'liq ikkita savolga javob berish lozim: noqonuniy daromad yoki "harom" pullar deganda nima tushuniladi? Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni yoki "harom" pullarni legallashtirish jarayonining tuzilishi va mazmuni nimalardan iborat?

Jinoiy faoliyatdan olingan "harom" pullar yoki daromad deganda, noqonuniy bitim va noqonuniy jinoiy harakat yoki harakatsizlik orqasida olingan daromadlar tushuniladi. Shunga ko'ra, "harom" pullar yoki noqonuniy daromadlarni tadqiqotchilar bir xilda, ya'ni yashirin holda, qonunga xilof ravishda olingan daromadlar deb sharhlaydilar. Bu o'rinda "harom" pullar va daromadlarni "legallashtirish" yoki "yuvish" atamalarining mazmuniga yashirinlik xossasi kiritiladi. Shunday qilib, "harom" pullar yoki yashirin daromadlar tushunchasiga umumiy yondashuv tamom bo'ladi.

Turli mualliflar nuqtayi nazaridan tarkibiga aynan ushbu tushunchalar kiritilishi taqozo etiladigan xalqaro rasmiy hujjat va tavsiyalar mazmuni jihatidan o'zaro jiddiy farq qiladi.

BMT tomonidan 1988-yil 19-dekabrda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi Vena konvensiyasida[7], nazarimizda, "pullarni legallashtirish" tushunchasini belgilab olishga birmuncha muhim urinish bo'lgan. Pullarni legallashtirish deganda, bu yerda huquqbuzarlik natijasida olingan mulk bilan bog'liq turli manipulyatsiyalar (nayranglar) tushuniladi. Shunday

qilib, “harom” pullar yoki noqonuniy daromadlar mulk bilan aynanlashtirildi. Ammo ushbu muammoni tadqiq etgan barcha olimlar ham bu fikrga qo‘shilavermaydilar. Jumladan S.B. Chernov yanada torroq yondashuvni taklif etadi. U pullarni legallashtirish deganda, jinoyat natijasida olingan pul mablag‘larining kelib chiqishi, manbai, mavjudligi, taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va iste‘mol qilinishini yashirish maqsadida bajariladigan har qanday faoliyat yoki tuziladigan bitimni tushunadi[8].

Bizning fikrimizcha, bu ta‘rifda tadqiqotchi quyidagi xatolarga yo‘l qo‘ygan. Birinchidan, muallif faqat pul mablag‘lari ustida so‘z yuritmoqda. Ma‘lumki, bu nihoyatda tor yondashuv, chunki legallashtirishda faqat pul mablag‘lari emas, balki boshqa mulklar ham qatnashishi mumkin.

Ikkinchidan, faqat sodir etilgan jinoyat natijasida olingan pul mablag‘lari xususida gap boradi. Bunda o‘zga huquqbuzarliklar muammo doirasidan tashqarida qoladi. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuvni qabul qilib bo‘lmaydi. Zero bu holatda yopiq doira vujudga keladi: legallashtirishni tergov qilish uchun bank yoki tijorat sirini yengib o‘tish zarur, biroq buning uchun avvalo, legallashtirish fakti bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish kerak. Ayni vaqtda daromadning jinoiy ekanligini oldindan bilmay turib, jinoyat ishi qo‘zg‘atishning iloji yo‘q. Agar har qanday noqonuniy daromad jinoyatdan keladigan bo‘lsa, u holda bu xalqa tutashadi: legallashtirishning jinoyat ekanligini aniqlash orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atish, uni qo‘zg‘atgandan so‘ng esa bank yoki tijorat siriga kirish va shu orqali tergov va sud uchun zarur bo‘lgan amaliy harakatlarni o‘tkazishi mumkin.

Legallashtirish deganda, barcha noqonuniy (jumladan jinoiy) yo‘l bilan olingan daromadlar, shuningdek quyidagi moddiy boyliklar nazarda tutilishi kerak: Noqonuniy yo‘l bilan topilgan pul, olingan buyumlar va o‘zga fuqarolik huquqi obyektlari, qimmatbaho qog‘ozlar, shuningdek amaldagi qonunchilikni buzib olingan mulkiy huquqlar. Moddiy manfaatlar va ularning har xil turlariga bo‘ladigan tajovuzning davriyligini aniqlashtirish pul mablag‘lari va o‘zga mulklarning noqonuniy olinishiga qarshi kurash strategiyasini belgilab olishda alohida ahamiyat kasb etadi.

1990-yil 8-noyabrda Strasburg shahrida qabul qilingan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyaning 1-moddasida noqonuniy daromad har qanday huquqbuzarlik natijasida olingan turli ko‘rinishdagi moddiy foyda ekanligi qayd etiladi[9]. Bu foyda har qanday mulk, ya‘ni mulkiy va nomulkiy, ko‘char yoki ko‘chmas mulklar, shuningdek, bunday mulklar yoki ularning muayyan qismiga egalik huquqidan dalolat beruvchi yuridik hujjatlar yoki qog‘ozlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ushbu holatning tahlili shuni ko‘rsatdiki, “daromadlar” atamasi “moddiy manfaatlar va unga bo‘lgan huquqlar” atamasiga yaqin turadi. Boshqacha aytganda, bu yerda moddiy manfaatlar va unga bo‘lgan huquqlarni noqonuniy egallash xususida so‘z yuritiladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida foydalanilgan tushunchaga murojaat qilamiz[10]. Uning fuqarolik huquqlari obyektlari belgilab berilgan 71-moddasida bunday huquq obyektlariga pul va qimmatbaho qog‘ozlar bilan bir qatorda buyumlar, boshqa ashyolar, mulklar hamda mulkiy huquqlar, ish va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san‘at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shu jumladan, ularga bo‘lgan mutlaq

huquqlar, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy boyliklar kiritiladi.

Shunday qilib, agar nomoddiy manfaatlarni chiqarib tashlaydigan bo'lsak, fuqarolik huquqining noqonuniy yo'l bilan olingan barcha obyektlari "daromadlar" tushunchasi bilan o'xshash bo'lishi mumkin. "Daromadlar" tushunchasidan istisno tarzida fuqarolik qonuniga tegishli bo'lgan (O'zR FKning 97-100-m.) nomoddiy manfaatlarga shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni, shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmat va ismi, ishdagi obro'yi, shaxsiy va oilaviy siri, erkin harakatlanishi, yashash joyini tanlash huquqi, ism huquqi, mualliflik huquqi va tug'ilganidan boshlab yoki qonunga binoan fuqaroga tegishli bo'lgan o'zga nomulkiy va nomoddiy manfaatlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lishi kerak.

Qonun chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish" deb nomlangan 243-moddasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasi mazmuni bilan qiyoslar ekan, pul va qimmatbaho qog'ozlar bilan birga buyumlar, o'zga mulklar, shu jumladan, mulkiy huquqlar kiradigan daromadlarga Jinoyat kodeksining 243-moddasida asosli ravishda ishlar, xizmatlar, axborot, shu jumladan, ularga bo'lgan mutlaq huquqlarni (intellektual mulkni) kiritadi[11]. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Fuqarolik kodeksining 182-moddasiga ko'ra, "Mulk huquqining vujudga kelish asoslari quyidagilardan iborat: mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa asoslar hisoblanadi"[12].

Bunday yondashuv yetarli asoslangandek tuyuladi. Gap shundaki, fuqarolik huquqida noqonuniy yo'l bilan olingan bu kabi obyektlar huquqbuzarga moddiy foyda keltirishi mumkin. Noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlarga amaldagi qonunlarni buzib olinayotgan har qanday daromadlarni kiritish zarur. Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda "noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlar" tushunchasini yanada kengroq qilib quyidagicha ta'riflash mumkin. Noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlarga amaldagi qonunchilikni buzib olingan fuqarolik obyektlari hisoblangan quyidagi moddiy boyliklarni kiritish lozim: ko'chmas ashyolar (ko'chmas mulklar), kon uchastkalari, ajratib qo'yilgan suv obyektlari va yer bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hamma narsalar, ko'chirganda zarar yetkazmaslikning iloji bo'lmagan obyektlar, shu jumladan, o'rmonlar, ko'p yillik o'simliklar, davlat ro'yxatida bo'lgan binolar, inshootlar; havo va dengiz kemalari, ichki suzishda bo'lgan kemalar, kosmik obyektlar, shuningdek, boshqa ko'chmas mulklar; ko'char mulklar, ya'ni ko'chmas mulkka daxldor bo'lmagan mulklar, shu jumladan pullar (valyuta); valyuta qimmatliklari, qimmatbaho qog'ozlar (hujjatlar), amalga oshirish yoki berish faqat ularni ko'rsatish bilan mumkin bo'lgan, mulk huquqining belgilangan shakliga rioya qilinganligini tasdiqlaydigan va sharti bo'lgan rekvizitlari qo'yilgan hujjatlar - obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozitlar va jamg'arma sertifikatlari, ko'rsatiladigan bank jamg'arma daftarchalari, konosamentlar, aksiyalar va qimmatbaho qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar yoki ular tomonidan belgilangan tartiblarda qimmatbaho qog'ozlar qatoriga kiritilgan hujjatlar va ko'char mulklarga bo'lgan mulkiy huquqlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari (intellektual mulk), shu jumladan, moddiy foyda keltiradigan ushbu natijalarga bo'lgan mutlaq huquq.

Noqonuniy yo‘l bilan olingan daromadlar yoki “harom pullar” (bu daromadlarning ramziy nomi) tushunchasini aniqlab olgandan so‘ng jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni “legallashtirish” tushunchasiga o‘tish, uning tarkibi va mazmunini belgilab olish zarur. “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni aniqlash, olib kuyish va musodara qilish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyaning 6-moddasiga binoan, “harom» pullarni legallashtirish (yoki noqonuniy daromadlarni legallashtirish) deganda, qasddan sodir etilgan huquqbuzarlik tushuniladi va ular quyidagilardan iborat[13]:

1) mulkning noqonuniy faoliyatdan olingan daromad ekanligini bilgan xolda, kelib chiqishining noqonuniy ekanligini yashirish maqsadida konversiya qilish yoki ko‘chirish yoxud noqonuniy daromad olishga aralashgan har qanday shaxsga yordam ko‘rsatish, o‘z qilmishining yuridik oqibatidan qutulishga intilish;

2) mulkka bo‘lgan egalik huquqi yoki u bilan bog‘liq huquqlarni, bu mulklarning noqonuniy daromadlardan olinganligini bilgan holda uning asl xususiyati, manbai, turgan joyi, tasarruf etilishi, bir joydan boshqa joyga ko‘chirilishiga doir axborotni yashirish yoki buzib ko‘rsatish;

3) mulkni olish vaqtida uning noqonuniy daromadlardan ekanligini bila turib, uni olish, unga egalik qilish yoki undan foydalanish;

4) yuqorida ko‘rsatilgan huquqbuzarlikning birortasini sodir etishda ishtirok etish, sodir etish yoki sodir etishga suiqasd qilish maqsadida birlashish yoki til birlashtirish, ko‘rsatilgan huquqbuzarliklarni sodir etishda yordam berish, dalolatchilik qilish va maslahat berish.

Mualliflar tomonidan keltirilgan ta‘riflarni umumlashtirib, qonun chiqaruvchi O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi qonunning 3-moddasi ikkinchi qismida quyidagi ta‘rifni bergan[14]: “*Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish* — pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, ularni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo‘lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish”.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 1-sonli qarorining 3-bandida legallashtirishga “JK 243-moddasi mazmuniga ko‘ra, daromadlarni legallashtirish deganda, aybdor tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning kelib chiqishiga ularni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish, shuningdek, ularning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mulkka nisbatan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash yo‘li bilan qonuniy tus berilishi tushunilishi lozim”, degan ta‘rif berilgan[15].

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (bundan buyon matnda — daromadlarni legallashtirish) jamiyat hayotining turli sohalarida uyushgan jinoyatchilik tug‘ilishi

va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoit yaratishi tufayli milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish tariqasidagi jinoyat tarkibining zarur elementi bu jinoiy faoliyat natijasida orttirilgan mulk mavjud bo'lishidir. Bunday mulk alohida olingan bir shaxs tomonidan ham, jinoiy uyushma yoki uyushgan guruh tomonidan ham, (JK 29-moddasi to'rtinchi va beshinchi qismlari) qasddan sodir etilgan bir yoki bir necha jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 243-moddasi mazmuniga ko'ra, daromadlarni legallashtirish deganda, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash tushunilishi lozim. Mulq obyektini sifatida bunday hollarda Fuqarolik kodeksi 169-moddasida nazarda tutilgan har qanday mulk bo'lishi mumkin.

Bunday mulkka qonuniy tus berish pul mablag'lari yoki boshqa bitimlar amalga oshirishda ifodalanadi.

Tadqiqotchi Y. Narziyevning fikricha, "Jinoiy daromadlarni legallashtirish bu jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari va boshqa mol mulklarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish, ulardan tadbirkorlik yoki xo'jalik faoliyatida foydalanish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, xuddi shuningdek, bunday pul mablag'lari va boshqa mol-mulklarning asl xususiyatini, kelib chiqish manbaini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashligini yashirish yoxud sir saqlash maqsadida sodir etilgan jinoyatdir"[16].

M.X. Rustamboyev esa, "obyektiv tomondan jinoyat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishda, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) kelib chiqishiga turli vosita va uslublar bilan qonuniy tus berishda ifodalanadi" deya ta'rif beradi[17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 28-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi" to'g'risida"gi PF-6252-son Farmoni tasdiqlandi[18].

Quyidagilar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida milliy darajada aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda davlat siyosatini yanada mustahkamlash;

ushbu sohadagi milliy tizimning xalqaro hujjatlarga muvofiqligini, shuningdek, FATF standartlari va xalqaro-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilinishini ta'minlash;

mazkur sohadagi jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida davlat organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning javobgarligini kuchaytirish;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda tizimli muloqotni yo'lga qo'yish;

sohadagi barcha statistik ma'lumotlarning yaxlit tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish hamda axborot almashinuvi samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

sohaga jalb qilingan davlat organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, shuningdek, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar xodimlarini o'qitish hamda qayta tayyorlash.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jinoiy daromadlarni legallashtirishning mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagicha ta'rifi berish mumkin: *“Jinoiy daromadlarni legallashtirish bu jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulklarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish, ulardan tadbirkorlik yoki xo'jalik faoliyatida foydalanish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, xuddi shuningdek, bunday pul mablag'lari va boshqa mol-mulklarning asl xususiyatini, kelib chiqish manbaini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashligini yashirish yoxud sir saqlash maqsadida sodir etilgan jinoyatdir”*.

Bizga ma'lumki, har bir huquqiy demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatiga qarshi kurashishga qaratilgan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati jinoiy guruh, jinoiy uyushma va terrorizmni moliyalashtirish, terrorizm, korrupsiya jinoyatlari va “xufiyona” iqtisodiyotni rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratishi, kriminal mablag'ning qonuniy iqtisodiyotga kirib kelishi, shuningdek, jinoyatchilarga jinoiy yo'l bilan topilgan daromad-lariga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish imkoniyatlarini yaratish orqali ijtimoiy manfaatlariga tahdid soladi.

Mamlakatimizda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi qaratilgan kengash islohotlar olib borilishiga qaramasdan, bu sohada ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar mavjud.

Yuqoridagi muammolardan biri jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining kriminalistik tavsifidir.

Jinoyatning kriminalistik tavsifi atamasi va tushunchasi dastlab o'tgan asrning 60-yillarida kriminalistika faniga kirib kelib, bugungi kunda kriminalistika xususiy nazariyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi[19].

Jinoyatning kriminalistik tavsifi-hodisaning bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimolli informatsion modeli hisoblanib, taxminiy xulosa chiqarish, tergov versiyasini olg'a surish uchun asos bo'ladi. Jinoyat kriminalistik tavsifi o'ziga xos rol ni bajaradi: u bo'lish ehtimoli mumkin bo'lgan hodisaning informatsion modelini yaratish imkonini beradi[20]. Bunday model esa jinoyatlarni tez ochish, jinoyatlarni oldini olish va tergov qilishning boshqa vazifalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Jinoyat kriminalistik tavsifi tarkibini muayyan elementlar tashkil etib, uning mazmunini jinoyat huquqiy, jinoyat protsessual, kriminalistik, kriminologik, psixologik, shuningdek jinoyatning bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimolli modelini tiklashga qaratilgan boshqa ma'lumotlar

tashkil etadi. Shu sababli jinoyatning kriminalistik tavsifi jinoyatga nisbatan beriladigan jinoyat-huquqiy va kriminologik tavsiflardan ko‘ra kengroqdir.

Jinoyat kriminalistik tavsifining elementlari barcha jinoyatlar uchun bir xil bo‘lmay, jinoyatning tipga oid xususiyatlariga qarab turlicha bo‘ladi.

Kriminalistikaning xususiy nazariyasida jinoyat kriminalistik tavsifi elementlariga bag‘ishlangan ko‘plab qarashlarni uchratish mumkin. Xususan, jinoyatning kriminalistik tavsifiga I.F. Panteleyev jinoyatni sodir etishda foydalaniladigan texnik vositalar va ularni olish manbalarini, ashvoviy dalillarni, jinoyatdagi moddiy izlarning tipga oid tavsifini, ularni topish ehtimoli bo‘lgan joylarni, tuynuklarni, jinoyatchini niqoblashning boshqacha vositalarini, ularning “kasbiy” yutuqlari, jinoiy aloqalarining xususiyatlarini, I.A. Vozgrin jabrlanuvchining tipga oid xususiyatlarini, jinoyat va jinoiy harakatlarning tipga oid oqibatlarini yashirishni, keng tarqalgan jinoyat motivlari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlarni, I.F. Gerasimov jinoiy qilmishning keng tarqalganligini, uni aniqlash va fosh etishning o‘ziga xos jihatlarni, jinoiy hodisaning tipga oid xususiyatlarini, jinoyat izlarining shakllanish mexanizmlarini kiritishni taklif etadi.

L.A. Sergeyev “jinoyatning kriminalistik tavsifining tuzilishiga quyidagilarni: sodir etilgan jinoyatning alohida belgisi va izlari, jinoyatchilarni ifoda etuvchi holatlar va ularning aloqalari, obyektiv tomondan-vaqti, joyi va jinoyatni sodir etish holati, tajovuz obyekti va sanab o‘tilgan faktorlarni o‘zaro bog‘liqligini kiritadi.

Ushbu fikrda kriminalistik tavsifning ayrim elementlari aks etmagan, ya’ni jinoyatchi va jabrlanuvchining shaxsi kabi muhim beligi nazardan chetda qoldirilgan.

Shubhasizki, jinoyat kriminalistik tavsifining umumiy nazariyasidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining o‘ziga xos kriminalistik tavsifini ishlab chiqishda foydalanish zarur.

Jinoiy daromadlarni legallashtirishning kriminalistik tavsifi quyidagilardan iborat:

- jinoiy tajovuz obyekti;
- jinoyatni sodir etish usuli;
- jinoyatni sodir etish vaqti, joyi va sharoiti;
- izlarni hosil bo‘lish mexanizmi;
- motiv va maqsad;
- jinoyatchining shaxsi.

Yuqoridagi kriminalistik tavsifning har bir elementiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Tajovuz obyekti, ushbu jinoyat bo‘yicha tajovuz obyekti O‘zbekiston Respublikasi JKning 243-moddasida ko‘rsatilgan jinoiy faoliyatdan olingan mulk (pul mablag‘lari va boshqa mol-mulklar) hisoblanadi.

Pul mablag‘lari deganda, O‘zbekiston Respublikasining pul birligi hisoblangan so‘m, valyuta qimmatliklari va qimmatli qog‘ozlar tushuniladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, “keng ma’noda”gi pul mablag‘lari tushunchasiga nafaqat o‘zbek so‘mi yoki xorijiy davlat valyutasi, balki kiberto‘lov va kibervalyutalarni ham kiritish mumkin.

Kiberto‘lovdan hozirgi kunda asosiy to‘lov vositalari bo‘lgan valyuta, kredit kartochkalari, cheklar, debitorlik kartochkalari va naqd pulsiz avtomatlashtirilgan pul o‘tkazishlarda foydalanilmoqda. Ularni amalga oshirish vaqtida qog‘oz pullarning o‘rnini

bosuvchi elektron vositalardan–qog‘oz pullarning hamma atributlari va xususiyatlari mavjud bo‘lgan kiber valyutadan foydalaniladi.

FATFning 1999-yilgi maxsus xizmat organlari faoliyati yakuni bo‘yicha hisobotida huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilarning kredit kartochka, “internet tizimi” orqali amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarini yetarli darajada kuzatish imkoniyatiga ega emasligi ta’kidlangan.

Tajovuz obyektining muhim belgisi legallashtirish jarayonida uning o‘zgaruvchanligidir. Masalan, jinoyat natijasida olingan pul mablag‘lari mol-mulk sotib olishga ishlatiladi. Fransiyaning interpol byurosida 14 ta ushbu toifadagi jinoyat ishlari tahlil qilenganda (14 holatdan yettitasida) jinoyatchilar kriminal foydalarini oltinga, san‘at asarlariga, mashinalarga, samolyotlarga sarmoyalagan.

Pul mablag‘larini legal biznesga kiritishda jinoyatchilar darhol “bir o‘q bilan ikki quyovni uradilar”, nafaqat mulkni legallashtirish, balki qo‘shimcha foyda olishlari ham mumkin.

Tajovuz obyektiga fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulklar kirmaydi, ularni legallashtirishning imkoniyati yo‘q. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni fuqarolik muomalasida bo‘lishi taqiqlangan, jumladan o‘q otar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlash qurilmalari, kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalar, radioaktiv materiallar, narkotik yoki psixotrop moddalar, fuqarolar egaligida bo‘lishi mumkin bo‘lmagan texnik vositalar bilan almashtirish, bizning fikrimizcha, JKning 243-moddasi predmetini tashkil etmaydi.

I.S. Tumakovning fikricha, shaxs jinoiy daromadlardan maxfiy eshitib turishda ishlatiladigan maxsus texnik qurilmalarini sotib olishga sarflasa, legallashtirish jinoyati bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lmaydi. Biroq, shaxs maxfiy eshitib turishda foydalaniladigan maxsus texnik qurilmalarni sotib olish uchun litsenziyaga (boshqa majburiy belgilarga) ega bo‘lsa, u legallashtirish jinoyati bilan jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, jinoiy yo‘l bilan olingan pul mablag‘larini fuqarolik muomalasida bo‘lishi taqiqlangan mol-mulklarni olish uchun o‘tkazish, shuningdek shu maqsadda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan jinoiy daromad qonuniy bo‘lib qolmaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, qalbaki pullar, qimmatli qog‘ozlar, qalbaki kredit yoxud hisob-kitob va boshqa to‘lov hujjatlari JKning 243-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatning predmeti bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarorining 3-bandida jinoyat natijasida orttirilgan mulk obyekti sifatida Fuqarolik kodeksining 169-moddasida har qanday mulk bo‘lishi nazarda tutilgan.

Biroq, FKning 169-moddasida nazarda tutilgan qator mulk huquqi obyektlari, ya’ni yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shlig‘i legallashtirishning predmeti bo‘la olmaydi. Chunki, bunday mol-mulklar jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilganligi bilan fuqarolik muomalasida bo‘lishi mumkin emas va shu munosabat bilan ularni legallashtirish imkoniyatlari mavjud emas. Mazkur holatda Oliy sud jinoiy daromadlarni legallashtirish predmeti doirasini asossiz ravishda kengaytirib yuborgan.

FKning 3-moddasi ikkinchi bandida boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridagi fuqarolik qonun hujjatlari normalari Fuqarolik kodeksiga mos bo‘lishi shart deb ko‘rsatilgan. Demak,

bizning fikrimizcha, jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari mulkni FK normalariga zid ravishda talqin qilishi mumkin emas.

JKning 243-moddasida ko'rsatilgan boshqa mol-mulk deganda, pul mablag'laridan tashqari, fuqarolik muomalasida bo'lishiga yo'l qo'yilgan fuqarolik huquqi obyektiga kiruvchi barcha ko'char va ko'chmas mol-mulklar tushuniladi.

V.A. Nikulina boshqa mol-mulklar tushunchasiga nafaqat aniq mulkiy: ko'char va ko'chmas, balki intellektual mulklarga, intellektual faoliyat natijalari va shu kabi boshqa mulklarga nisbatan qo'llanishini lozim", deb ta'kidlaydi.

"Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risida"gi Strasburg konvensiyasida ko'rsatilishicha, "mol-mulk deganda mol-mulkning har qanday turini, ashyoviy yoki ashyoviy bo'lmagan, ko'char yoki ko'chmas, xuddi shuningdek shunday mol-mulkka nisbatan huquq beruvchi yuridik aktlar yoki hujjatlar tushuniladi".

Jinoiy daromadlarni legallashtirish usullari - deb jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulklarga qonuniy tus berishga qaratilgan legallashtirish jinoyatini sodir etishga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish va izlarni yashirishning kompleks harakatlar, bosqichlari majmuiga aytiladi.

Jinoyatni sodir etish usuli quyidagilardan tarkib topgan:

- a) jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish;
- b) jinoyatni sodir etish;
- v) jinoyat izlarini yashirish.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish usullarining turi ko'p bo'lganligi bois, hozirgacha to'liq o'rganilmagan va ochib berilmagan. Hozirgi kunda jahonda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan legallashtirishning yangi usul va tizimlari "ixtiro" etilmoqda.

A.V. Solovyev jinoiy daromadlarni legallashtirish usullarini modellar, iqtisodiyot sohalari va jinoyat sodir etilgan joy bo'yicha bo'lishni taklif etadi.

Ko'pgina mualliflar jinoyatni sodir etish usullari sifatida jinoiy daromadlarni legallashtirish bosqichini ajratib ko'rsatadi. "...birinchidan, topilgan pul mablag'larining jinoiylikini niqoblash uchun uni o'tkazish, ikkinchidan, tergovni chalg'itish uchun izlarni yashirish va uchinchidan, pulning kasbiy yoki geografik kelib chiqishini sir saqlagan holda undan foydalanishni ta'minlash".

V.A. Ivanov jinoyat sodir etish usulini bosqichlarga qarab uchga bo'lishni taklif etadi: jinoiy daromadlarni bevosita legallashtirish va ularni qonuniy muomalaga qaytarishdan iborat ikki fazali model; ajratish, aralashtirish va integratsiyadan iborat uch fazali bosqich va naqd pul mablag'larini jinoiy ta'qibdan ozod etish, ularni taqsimlash, jinoyat sodir etish izlarini niqoblash va pul massasini integratsiyalashdan iborat to'rt fazali bosqichdir.

BMTning ixtisoslashtirilgan tashkiloti legallashtirish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'ladi: joylashtirish (pul mablag'larini legal iqtisodiyotga joylashtirish yoki ularni kontrabanda yo'li bilan xorijiy davlatga chiqarish); ajratish (pul mablag'larini murakkab tuzilmalar orqali uning manbasidan ajratish); integratsiya (legallashtirilgan pul mablag'larini qonuniy iqtisodiyotga kiritish).

Shveysariyalik professor P. Bernaskoni va nemis olimi K. Osvald jinoiy daromadlarni legallashtirishning ikki bosqichli modelini ajratib ko'rsatadi. Birinchi bosqich, qisqa muddatli fe'l-atvorga ega bo'lib, bunda bevosita "iflos pullar"ga ko'chmas mol-mulk, qimmatbaho metall va toshlar, zargarlik buyumlari, boshqa qimmatliklar sotib olish, yuqori qiymatga ega bo'lgan kupyurali valyutaga, boshqa xorijiy valyutaga almashtirish orqali legallashtiriladi.

Ikkinchi bosqich o'rtacha va uzoq muddatli fe'l-atvorga ega bo'lib, dastlab legallashtirilgan pullar kelib chiqishi jinoiylikni ko'rsatuvchi tashqi belgilar to'la niqoblanmaguncha turli xil moliyaviy muassasalar orqali o'tkaziladi.

Shveysariyalik kriminalist olim K. Myuller "iflos" pullarni legallashtirishning to'rt sektorli modelini ishlab chiqdi. Har bir seksiyada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ichki seksiya operatsiyalar amalga oshiriladi.

Birinchi sektorda dastlabki legallashtirish amalga oshiriladi, ikkinchisida esa legallashtirilgan pul mablag'lari kontrabanda uchun bir yerga to'planadi. Uchinchi bosqichda esa legallashtirilgan pul mablag'lari moliyaviy tizimlarga kiritiladi. To'rtinchi sektorda esa legal biznesda tamomila legallashtirilgan integratsiya jarayoni amalga oshiriladi.

A. Syund jinoiy pul mablag'larining aylanishiga qarab o'ziga xos legallashtirish modelini ishlab chiqdi. Ushbu model kriminal legallashtirishning tarkibiy elementlaridan iborat bo'lib, butun davrning (aylanish) amalga oshirilishi natijasida jinoiy daromad oxir oqibat qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga sarmoyalanadi.

I.S. Tumakov, jinoyat sodir etish usullari qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga, legallashtirilayotgan mol-mulk miqdori va jinoyat subyektining jamiyatga qarshi qaratilgan harakatlar shakliga qarab quyidagi guruhga ajratadi: jinoiy daromadlar legallashtiriladigan iqtisodiyot sohalari; sodir etish joyi; ishtirokchilik turi va shakli; legallashtiruvchi shaxsning birinchi jinoyatni sodir etishda ishtiroki; asosiy jinoyatni sodir etish usullarining legallashtirish usullari bilan bog'liqligi; daromad qanday jinoyat natijasida topilganligi; jinoyat subyekti shaxsi, malakasi, ma'lumoti; kriminal qilmishni yashirishda huquqni muhofaza qiluvchi va hokimiyat organlari vakillari ishtiroki; legallashtirilgan pul mablag'larining sarflanishi; qo'llaniladigan texnik vositalar; jinoyat sodir etish usullarining, bitimlarning sodir etish tezligi; jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadi.

Ayrim olimlar jinoiy daromadlarni legallashtirish usullari bo'yicha ko'rib chiqilayotgan yuqoridagi modellar kriminologik ahamiyatga ega ekanligini, ular ortiqcha nazariyalashtirilgan va kriminal voqeiylikdan uzoqlashganligi bois murakkab niqoblangan jinoyatni tez va to'la ochish, tergov qilish uchun zarur bo'lgan metod va vositalarni ishlab chiqishga qodir emas, deb ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, bunday fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jinoyatning kriminalistik tavsifi jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini sodir etish mumkin bo'lgan informatsion modelini yaratishdan iboratdir. Shunday ekan, mazkur jinoyatni sodir etishning mumkin bo'lgan, hatto amaliyotda uchramaydigan usullarini ham tahlil etish ushbu toifadagi jinoyatlarni tez va to'la ochish, oldini olish va tergov qilishning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, usullarni tasniflash-bu oddiygina guruhlariga ajratish emas, balki ichki va tashqi faktorlarga qarab muayyan tartibga solishdir.

V.A. Nikulina jinoyat sodir etish usulini guruhlariga ajratish yuzasidan quyidagi fikrni to'g'ri ta'kidlaydi: "...har bir usulning alohida bo'lishi to'g'risida gapirish mumkin emas— "iflos" pullarni bir zanjirda legallashtirishda usullar turli variantlarda kelishi mumkin".

O‘zbekiston Respublikasi JKning 243-moddasi dispozitsiyasida jinoyatni sodir etish usullari sifatida o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish, yashirish yoki sir saqlash ko‘rsatilgan.

Ayrim adabiyotlarda o‘tkazish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan pul mablag‘lari bilan banklarda qandaydir moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish tushunilishi ko‘rsatilgan. Bunday fikrga qo‘shilish qiyin. Chunki FK 82-moddasida fuqarolik huquqi obyektlarining, xususan mol-mulkning muomalada bo‘lishi belgilangan bo‘lib, uning mazmunida fuqarolik obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo‘lishi cheklab qo‘yilmagan bo‘lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Shunday ekan, jinoyat natijasida olingan mol-mulkni o‘tkazish deganda nafaqat pul mablag‘larini, balki fuqarolik muomalasida bo‘lishi taqiqlanmagan har qanday mol-mulkni bir shaxsdan boshqasiga o‘tkazishni tushunish lozim.

Mulkka aylantirish deganda – har qanday fuqaroviy huquqiy bitim: oldi-sotdi bitimini, almashish, hadya va hokazo bitimlarni tuzish yoki jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni qonuniy tadbirkorlik yoki boshqa ishlab chiqarish tuzilmasini tashkil qilish yoki ish olib borishga sarflash tushuniladi.

Almashtirish deganda, so‘mni har qanday xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish tushuniladi.

Jinoyatning asl xususiyatini *yashirish* yoki *sir saqlash* deganda, jinoiy daromad tarzidagi narsa yoki buyumning asl holatini o‘zgartirish tushuniladi. Bunday harakatlar deganda o‘g‘rilik, bosqinchilik, talonchilik, pora olish kabi jinoyatlarning predmeti hisoblangan tilla taqinchoqlar, rangli metallar, zargarlik buyumlaridan boshqa xildagi buyumlar yasashni tushunish lozim.

Jinoiy daromadning manbaini *yashirish* deganda, jinoiy daromad kelib chiqqan manbani go‘yo qonuniy daromad topish mumkin bo‘lgan obyekt qilib ko‘rsatish tushuniladi. Mazkur jinoiy harakatlarni amalga oshirish uchun qonunda belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlari hisoblangan mulkchilik shakli har xil bo‘lgan yuridik shaxs yoki yakka tadbirkorlik tashkil etiladi. Ushbu usulda sodir etilgan jinoyatni tergov qilishda tadbirkorlik subyektlarining qonunda belgilangan tartibda ochilishi va faoliyat olib borishi, soliq va boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishiga emas, balki ushbu tadbirkorlik faoliyatiga, ustav jamg‘armalarining shakllantirilishiga kiritilayotgan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulklarning jinoyat natijasida topilganligiga e‘tibor qaratish, ularni sinchkovlik bilan, to‘la va har tomonlama tahlil etish zarur.

Jinoiy daromad, ya‘ni pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkka nisbatan haqiqiy egalik huquqlarini yashirish yoki sir saqlash deganda, jinoiy daromadni o‘zga shaxs nomidan boshqarish ham tushunilmog‘i lozim. Shaxs jinoiy daromadning kimga qarashli ekanligini yashirish maqsadida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan ko‘char va ko‘chmas mol-mulklarni, odatda, yaqin qarindoshlari yoki tanishlari nomiga rasmiylashtiradi, ularning nomida firmalar tashkil etadi, mol-mulkni boshqarish esa uning o‘zida qoladi. Ya‘ni u benefitsiar mulkdor bo‘lib qolaveradi.

Bizning fikrimizcha, jinoiy daromadlarni legallashtirish usullarini legallashtirilayotgan davlatning qonunchilik tizimi, jinoiy daromad olinayotgan manbalar, jinoyat predmeti, jinoyat subyekti va jinoyatdagi ishtirokchilik masalalari va legallashtirilayotgan pul mablag‘larining miqdori kabi belgilarga qarab guruhlariga ajratish lozim.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini sodir qilish *vaqti va joyi*. JK 243-moddasi dispozitsiyasida jinoyatni sodir qilish vaqti obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida ko'rsatilmagan. Odatda, sud-tergov amaliyotida har qanday jinoyatni sodir qilish vaqti aniq ko'rsatiladi. Ammo bu ko'rsatilgan vaqt jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmay, sodir etilgan jinoyat hodisasini isbotlashning bir elementi sifatida ko'rsatiladi. Mazkur sohada tadqiqot ishlarini olib borgan I.A. Kiselev jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini sodir etish vaqti va joyini jinoyat ishi doirasida isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar sifatida qaraydi.

Birinchi navbatda shunga e'tibor qaratish lozimki, ushbu jinoyat faol harakat natijasida sodir etiladi: pul mablag'lari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki bitimlar tuzish.

JK 243-moddasida moliyaviy operatsiyalar yoki fuqarolik bitimlari to'g'risida bevosita ko'rsatilmagan. Ammo, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarga qonuniy tus odatda, unga nisbatan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki boshqa bitimlar tuzish yo'li bilan beriladi. Har qanday moliyaviy operatsiya yoki bitim o'zining tuzilish vaqti va joyiga ega bo'ladi. Mazkur toifadagi jinoyatlarni sodir etish, jinoiy daromadlar turgan joyini isbotlash shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish joyini belgilash va uning mol-mulkini musodara qilish imkonini beradi.

Sharoit ushbu jinoyatni sodir etish usullariga ta'sir etadi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, sharoitni aniqlash jinoyatni sodir etish usullarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Ya'ni jinoyatni sodir etish usulini aniqlashda mansabdor shaxsning vakolat doirasi, tashkilotning tizimi va uning huquqiy maqomini inobatga olishi lozim. Bu esa ushbu jinoyatni sodir etish sharoiti sifatida namoyon bo'ladi.

Izlarning hosil bo'lish mexanizmi – jinoyatchining harakati bilan sababli bog'langan atrof-muhitdagi har qanday moddiy voqelikdagi o'zgarishlar tushuniladi. Bular quyidagicha yuzaga kelishi mumkin:

aks etuvchi izlar, jinoyatda qo'llangan obyektning sifat va son ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar;

obyektlar orasidagi aloqa va munosabatlar ko'rinishidagi izlar;

izlar o'rnida ko'rinadigan hodisalar.

Yuqoridagi holatlarni to'g'ri baholash tergovni samarali olib borish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish natijasida topilgan mulkni (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkni) o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berishda, shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etishda yoxud ko'chirishda va pul mablag'larini yashirishdan qoladigan izlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Yuqoridagilardan tashqari, ushbu jinoyat natijasida ideal izlar qoladi. Bunday izlar so'roq qilish orqali olinadi.

Motiv va maqsad, jinoyatni sodir etishda asosiy boshqaruv vositasini motiv, avval turtki bo'ladigan holat va holatdan kelib chiqib maqsad tashkil qiladi. Jinoyat huquqida motiv deb, jinoyatchining buzuvchi niyati, shaxsda jinoyat sodir qilish uchun jur'at tug'diradigan va jinoyatni amalga oshirishga sabab bo'ladigan holat sifatida ta'riflanadi. Motivni bunday tushunishning jinoiy daromadni legallashtirish jinoyatlarini ochish va uni oldini olishda kriminalistik ahamiyati alohida o'rin tutadi.

Ushbu jinoyatlar bo'yicha motivni o'rganish jinoiy holatni, jinoyatchining shaxsini aniqlash, aybning fosh qilish kabi masalalarga aniqlik kiritishi bilan muhimdir. Motiv va maqsad bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, maqsad jinoyatchining harakatini tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, jinoyatchining maqsadini aniqlash jinoiy faoliyat va ish yuzasidan haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi.

Jinoyatchining shaxsi. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

JK 243-moddasining subyekti bo'lib o'zining yoki o'zga shaxsning jinoiy daromadini legallashtirgan yoki legallashtirishda ishtirok etgan shaxslar hisoblanadi. Bunda jinoiy daromadni topgan shaxs, jinoiy daromadlarni legallashtirgan shaxs, legallashtirishdagi ularning roli, ishtirokchilik belgilari isbotlash lozim bo'lgan holatlarga kiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro konsepsiya jinoiy daromadlarni legallashtirishning ijrochilariga konsultatsiya bergan shaxslarni legallashtirish uchun jinoiy javobgarlikka tortishni nazarda tutadi. Odatda bunday shaxslarga huquqshunoslar, advokatlar yoki bank xizmatchilari nazarda tutilib, ularga nisbatan mustaqil jinoiy javobgarlik kiritishni taklif qilayotgan mualliflarni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Ayblanuvchining shaxsi ham o'zida insoniy xususiyatlar yig'indisini ifodalaydi. Shuning uchun ayblanuvchining shaxsini o'rganishda nafaqat uning o'ziga xos xususiyatlari, balki umuminsoniy xususiyatlar ham inobatga olinadi. Shaxsning harakatlarida g'ayriqonuniy faktning mavjudligi shaxs g'ayriijtimoiy xususiyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Kriminalistikada jinoyatni ochish va oldini olishda ko'pincha boshqa fanlar, pedagogika, psixologiya ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ayblanuvchining shaxsini o'rganish metodlarini ishlab chiqishda yuqoridagi fanlar ma'lumotlarini e'tiborga olish lozim. Yuqoridagi holatlar to'g'risidagi ma'lumot ayblanuvchi yaqinlaridan, qo'shnilaridan, jamoa a'zolaridan so'rov yo'li bilan olinadi.

Ayblanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar quyidagilardan tarkib topgan: jinoyatchi xususiyatlari (jinsi, yoshi, axloqi va psixologik qiyofasi, ma'lum bir ko'nikmalarga egaligi, jinoyatchilik tajribasi), jinoyat sodir etilgan joy bilan munosabati (yashash joyi, ishlash joyi, vaqt o'tkazadigan joyi). Jinoiy guruh uchun guruhdagi o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 243-moddasi tahririni quyidagicha o'zgartirishning taklifini kiritamiz:

“243-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni, agar pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, ularni tasarruf etish, olib o'tish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash, –

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) xizmat mavqeidan foydalanib;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan boʻlsa, – besh yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida olinganligini bila turib, boshqa shaxslar tomonidan ularga egalik qilish, ulardan foydalanish hamda ularni tasarruf etish, – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”,– deb belgilash maqsadga muvofiq boʻladi.

REFERENCES:

1. Y.SH. Narziyev. Jinoiy daromadlarni legallashtirishning ijtimoiy xavfliligi. // TDYUI Axborotnomasi.– Toshkent, 2010. - №1 B. 99-101.
2. Y.SH. Narziyev. Jinoiy daromadlarni legallashtirishning ijtimoiy xavfliligi. // TDYUI Axborotnomasi.– Toshkent, 2010. - №1 B. 99-101.
3. Фазилов Ф.М. Процессы и этапы отмывания денег // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2021. 4(79). URL: <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/11473> (дата обращения: 21.04.2022). <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/1147>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun. 3-modda. <https://lex.uz/acts/283717>
5. Y.SH. Narziyev. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi halqaro hamkorlikning huquqiy asoslari. // TDYUI Axborotnomasi. – Toshkent. 2008. - № 7. –B. 82-84.
6. Liability for legalization of incomes obtained from the proceeds of the offences in international law acts and legislation of foreign countries. Fazilov Farkhod Maratovich, Tashkent state university of law, Tashkent, 100047, Uzbekistan. PAGE 1
7. Конвенция Организации Объединенных Наций о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 года. http://www.unodc.org/pdf/convention_1988_ru.pdf
8. Чернов С.Б. Противодействие легализации криминального капитала как стратегическое направление борьбы с преступностью в условиях рыночной экономики в России // Преступность, стратегия борьбы. –М.: риминологическая ассоциация, 1997. – С. 121.
9. Конвенция об отмывании, выявлении, изъятии и конфискации доходов от преступной деятельности (ETS n 141) Страсбург, 8 ноября 1990 года. http://eurasiangroup.org/ru/restricted/strasburg_conv.pdf
10. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/acts/111189>
11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz>
12. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/acts/111189>
13. Конвенция об отмывании, выявлении, изъятии и конфискации доходов от преступной деятельности (ETS n 141) Страсбург, 8 ноября 1990 года. http://eurasiangroup.org/ru/restricted/strasburg_conv.pdf

14. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. (*O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 43-son, 451-modda*)
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011 yil 11 fevraldagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori. <http://www.lex.uz/>
16. Y.SH. Narziyev. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga oid jinoyatlarni tergov qilish. Nomz. diss. avtoreferati. – T.: TDYUI, 2011. –B 14
17. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.:Adolat. 2006. 476- b
18. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/jinoiy_daromadlarni_legallashtirishga_qarshi_kurashish_-_milliy_darajada
19. Т.В. Аверьянова, Р.С Белкин, Ю.Г. Корухов, Е.Р. Россинская. Криминалистика. Учебник для вузов. под ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, профессор Р.С. Белкина.-М.:Издательство группа НОРМА-ИНФРА. – М, 1999. – Б.687; Сергеев Л.А. Криминалистика М., 1991–Б.425.
20. Т.В. Аверьянова, Р.С Белкин, Ю.Г. Корухов, Е.Р. Россинская. Криминалистика. Учебник для вузов. Под ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, профессор Р.С. Белкина. - М.: Издательство группа НОРМА-ИНФРА. –М, 1999. –Б. 688.